31-mavzu. Oddiy differentsial tenglamalar. Bir jinsli differentsial tenglamalar	Differensial tenglama keltiriluvchi masalalar. Differensial tenglamalar nazariyasining asosiy tushunchalari. 1-tartibli differentsial tenglama uchun Koshi masalasi yechimining mavjudligi va yagonaligi haqidagi teorema. O`zgaruvchilari ajralgan va ajraladigan differentsial tenglamalar. Bir jinsli differentsial tenglamalar. Birinchi tartibli chiziqli differentsial tenglamalar. Bernulli tenglamasi. To`la differentsialli tenglama.
32-mavzu. Yuqori tartibli differentsial tenglamalar.	Yuqori tartibli differentsial tenglamalar uchun Koshi masalasi yechimining mavjudligi va yagonaligi. Tartibi pasaytiriladigan differentsial tenglamalar.
33-mavzu. Chiziqli bir jinsli differentsial tenglamalar.	Chiziqli bir jinsli differentsial tenglamalar. O`zgarmas koeffitsiyentli yuqori tartibli bir jinsli tenglamalar.
34-mavzu. O`zgarmas koeffitsiyentli yuqori tartibli bir jinsli bo`limgan differentsial tenglamalar.	O`zgarmas koeffitsiyentli yuqori tartibli bir jinsli bo`limgan, o`ng tomoni maxsus ko`rishishga ega bo`lgan differentsial tenglamalar. Differentieng tenglamalarning normal sistemasi. Differentieng tenglamalarni muxandislik masalalariga tadbiqlari.
Operatsion hisob va uning tadbiqlari	
35-mavzu. Operatsion hisob	Laplas almashtirishining ta'rifi va xossalari. Originallar va tasvirlar. Operatsion hisobning asosiy teoremlari. Asosiy

	funksiyalarning tasvirlar jadvali. Originalni tasvir bo'yicha tiklash usullari. Originallar o`ramasi, uning xossalari. O`ramalar uchun Laplas almashtirishi. Differensial tenglamalar va differensial tenglamalar sistemalarini operatsion hisob yordamida yechish. Operatsion hisobni muxandislik masalalariga tatbiqlari.
Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:	Kichik guruhlarda ishlash, Bahs munozara, muammoli ta'lim. Blits, munozara, savol-javob, o'z-o'zini nazorat.
Adabiyotlar:	A2; A3; A5; A8; A10; Q10; Q11; Q12; Q16; Q19.
Qatorlar	
36-mavzu. Sonli qatorlar. Musbat hadli sonli qatorlar yaqinlashishining yetarli shartlari.	Sonli qatorning asosiy tushunchalari. Qator yaqinlashishining zaruriy shartlari. Yaqinlashuvchi qatorlar va ularning xossalari. Garmonik qatorlar. Musbat hadli qatorlarni taqqoslash teoremlari. Musbat hadli sonli qatorlar yaqinlashishining yetarli shartlari: Dalamber alomati, Koshining radikal va integral alomatlari. Ishorasi almashinuvchi va o'zgaruvchan ishorali sonli qatorlar. Leybnits teoremasi. Absolyut va shartli yaqinlashuvchi qatorlar.
37-mavzu. Funksional qatorlar.	Funksional qatorlar. Funksional qatorlarni tekis yaqinlashishi. Funksional qator yig'indisini uzliksizligi. Funksional qatorlarni differensiallash va integrallash. Darajali qatorlar. Abel teoremasi. Yaqinlashish radiusi. Yaqinlashuvchi darajali qatorlarning xossalari. Qatorlarni differensiallash va integrallash
38-mavzu. Funksiyalarni Teylor va Makloren qatorlariga yoyish. Teylor va Makloren qatorlariga yoyish	Funksiyalarni Teylor va Makloren qatorlariga yoyish. Binomial qator. Asosiy elementar funksiyalarni qatorlarga yoyish. Qatorlarni taqribiy hisoblashlarga qo'llash, differensial tenglamalarni qatorlar yordamida yechish.
39-mavzu. Furye qatori	Furye qatori va Furye koeffitsiyentlari. Fure qatorining yaqinlashishi. Dirixle teoremasi. Toq va juft funksiyalarning Furye qatori. Davri $2l$ ga teng bo'lgan funksiyalarni $(-l, l)$ oralig'ida Furye qatoriga yoyish. Furye qatorining tadbiqlari.
Ehtimolliklar nazariyasi elementlari	
40-mavzu Ehtimolliklar nazariyasi fanining asosiy	Kombinatorika elementlari. O'rinalashtirishlar va o'rinalmashtirishlar. Gruppashashlar. Nyuton binomi. Elementar hodisalar fazosi. Ehtimollar nazariyasi fanining asosiy tushunchalari. Hodisalar algebrasi. Ehtimolning klassik

tushunchalari. Ehtimolliklarni qo'shish va ko'paytirish teoremalari	ta'rifi. Geometrik ehtimollik. Ehtimollilarni qo'shish va ko'paytirish teoremalari. Shartli ehtimol. To'la ehtimol. Beyes formulasi. Xodisalarining bog'liqmasligi.
41-mavzu. Bog'liqsiz tajribalar ketma-ketligi.	Tajribalar ketma-ketligi. Bernulli sxemasi. Eng katta ehtimollik soni. Puasson teoremasi. Muavr-Laplasning lokal va integral teoremalari.
42-mavzu Tasodify miqdor tushunchasi	Tasodify miqdor haqida tushuncha. Diskret tasodify miqdor va uning taqsimot qonuni. Uzlusiz tasodify miqdor. Uluksiz tasodify miqdorning taqsimot funksiyasi. Taqsimotning zichlik funksiyasi.
43-mavzu Tasodify miqdorlarning sonli xarakteristikalari	Tasodify miqdorlarning sonli xarakteristikalari. Matematik kutilish. Dispersiya. O'rtacha kvadratik chetlanish. Binomial taqsimot. Puasson taqsimoti.
44-mavzu Uzlusiz tasodify miqdor	Uzlusiz tasodify miqdor. Uluksiz tasodify miqdorning taqsimot funksiyasi. Taqsimotning zichlik funksiyasi. Uluksiz tasodify miqdorning sonli xarakteristikalari. Tekis taqsimot. Ko`rsatkichli taqsimot. Normal taqsimot.
45-mavzu Tekis taqsimot, ko`rsatkichli va normal taqsimotlarning sonli xarakteristikalari	Normal taqsimlangan tasodifit miqdorning berilgan intervalga tushish ehtimoli. Tekis taqsimot, ko`rsatkichli va normal taqsimotlarning sonli xarakteristikalari. Uch sigma qoidasi. Ixtisoslik fanlari va muhandislik masalalarida ehtimollar nazariyasini tatbiqlari. Chebishev tengsizligi. Katta sonlar qununining turli shakllari.
Qo'llaniladigan ta'limga texnologiyalari:	Kichik guruhlarda ishlash, Bahs munozara, muammoli ta'limga Blits, munozara, savol-javob, o'z-o'zini nazorat.
Adabiyotlar:	A2; A3; A5; A8; A10; Q10; Q11; Q12; Q16; Q19.

2.3. Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Laboratoriya ishlari o'quv rejada ko'rsatilmagan.

2.4. Hisob-grafik ishlarini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar.

Hisob-grafik ishlarini bajarish talabada oliy matematika fanini mustaqil
o'rganishni shakllantiradi va shuning bilan birga unda matematika va boshqa
fanlarning o'quv adabiyotlaridan foydalanish uchun zamin yaratadi. Hisob-grafik

ishlarni bajarish jarayonida matematikaning muhim jihatlari va uning texnikadagi o‘rnining dolzarbligini tushunib borishini ta’minlaydi.

Hisob-grafik ishlarida tasdiqlangan variantlar asosida talabaga semestr davomida o‘tilgan mavzular bo‘yicha misollar to‘plami beriladi.

Har bir hisob-grafik ish barcha mavzular bo‘yicha matematikaning tadbiqiy jihatlarini ochib berishi kerak. Har bir semestr davomida talabalar 2 ta hisob-grafik ishlari bajaradi.

“Oliy matematika” fani bo‘yicha hisob-grafik ishlarining TEMATIK REJASI

I SEMESTR.

1. Chiziqli algebra va analitik geometriya. Funksiyaning limiti, hosilasi va differensiali. Funksiyani to‘la tekshirish va grafigini chizish.
2. Aniqmas va aniq integrallar.

II SEMESTR.

1. Ko‘p o‘zgaruvchining funksiyasi. Differensial tenglamalar.
2. Sonli va funksional qatorlar. Funksiyalarni Teylor va Makloren qatorlariga yoyish.

III SEMESTR.

1. Kompleks o‘zgaruvchili funksiyalar. Operatsion hisob.
2. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika.

2.5. MUSTAQIL ISH MAZMUNI, HISOBOT SHAKLI (240 soat)

1.Mavzular bo‘yicha konspekt (referat, taqdimot) **tayyorlash.** Nazariy materialni puxta o‘zlashtirishga yordam beruvchi bunday usul o‘quv materialiga diqqatni ko‘proq jalb yetishga yordam beradi. Talaba konspekti turli nazorat ishlariga tayyorgarlik ishlarni osonlashtiradi, vaqtini tejaydi;

2.O‘qitish va nazorat qilishning avtomatlashdirilgan tizimlari bilan ishlash. Olgan bilimlarini o‘zlashtirishlari, turli nazorat ishlariga tayyorgarlik ko‘rishlari uchun tavsiya yetilgan yelektron manbalar, innovasion dars loyihasi namunalari, o‘z-o‘zini nazorat uchun test topshiriqlari v.b;

3.Fan bo‘yicha qo‘srimcha adabiyotlar bilan ishlash. Mustaqil o‘rganish uchun berilgan mavzular bo‘yicha talabalar tavsiya yetilgan asosiy adabiyotlardan tashqari qo‘srimcha o‘quv, ilmiy adabiyotlardan foydalanadilar. Bunda xorijiy tillardagi adabiyotlardan foydalanish rag‘batlantiriladi;

4.INTERNET tarmog‘idan foydalanish. Fan mavzularini o‘zlashtirish, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishlarni yozishda mavzu bo‘yicha:

—INTERNET manbalarini topish, ular bilan ishslash nazorat turlarining barchasida qo'shimcha reyting ballari bilan rag'batlantiriladi;

—mavzuga oid masalalar, keys—stadilar va o'quv loyihalarini ishlab chiqish va ishtirok yetish;

—amaliyot turlariga asosan material yig'ish, amaliyotdagi mavjud muammolarning yechimini topish, hisobotlar tayyorlash;

—ilmiy seminar va anjumanlarga tezis va maqolalar tayyorlash va ishtirok yetish;

—mavjud laboratoriya ishlarini takomillashtirish, masofaviy (distansion) ta'lif asosida mashg'ulotlarni tashkil yetish bo'yicha metodik ko'rsatmalar tayyorlash va h.k.

Yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, Internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola (tezis) va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan, konseptlarni va mavzuni o'zlashtirishni ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

Mustaqil ishni tashkil yetish bo'yicha uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar, keys—stadi, vaziyatli masalalar to'plami ishlab chiqiladi. Ma'ruza mavzulari bo'yicha amaliy topshiriq, keys—stadilar yechish uslubi va mustaqil ishslash uchun vazifalar belgilanadi.

Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Nº	Mustaqil ish mavzusi	Soat
1.	Dekart va qutb koordinatalari orasidagi bog'lanish. Koordinatalarni almashtirish. Silindrik va sferik koordinatalar.	10
2.	Konussimon sirtlar. Sfera. Aylanish sirtlar. Ikkinchi tartibli sirtlarga doir mashqlar.	20
3.	Yuqori tartibli xosilalar. Oshkormas va parametrik ko'rinishda berilgan funksiyalarningyuqori tartibli hosilalari.	10
4.	Funksiyalarni Teylor va Makloren katorlariga yoyishga misollar. Lopital qoidasi.	10
5.	Ekstremumlar nazariyasining geometriya, mexanika va fizika masalalariga tadbiqlari.	10
I-SEMESTR		60
6.	Eyler almashtirishlari.	6
7.	Xosmas integrallarning yaqinlashish alomatlari. Xosmas integralga doir mashqlar.	6
8.	Aniq integralni taqribiy hisoblash formulalari. Mavzuga doir mashqlar.	8
9.	Birinchi tartibli differensial tenglamaning maxsus yechimi. Klero tenglamasi. Lagranj tenglamasi.	6
10.	Differensial tenglamalar sistemasi. Normal sistema. Noma'lumlarni yo'qotish usuli.	8
11.	Differensial tenglamalarni taqribiy yechish usullari.(Eyler, Runge-Kutta, ketma-ket yaqinlashish, Adams metodi, Teylor formulasi).	6
12.	Differensial tenglamalarning amaliy masalalar yechishga tadbiqlari. Mexanik tebranishlarning differensial tenglamasi. Erkin tebranish, majburiy tebranish.	6
13.	Qatorlarni taqribiy hisoblashlarga tadbiqlari. Differensial tenglamalarni	6

	qatorlar yordamida yechish.	
14.	Fure integrali. Fure almashtirishlari.	8
II-SEMESTR		60
15.	Vektor maydonidagi ikkinchi tartibli amallar. Nabla operatori bilan amallar bajarish.	4
16.	Laplas operatorining silindirik va sferik koordinatalarda ifodalanishi. Maydonlar nazariyasining tadbiqi.	4
17.	Giperbolik va teskari giperbolik funksiyalar. Yopiq egri chiziq bo'yicha olingan integral.	2
18.	Modulning maksimum prinsipi. Koshi turidagi integral. Yuqori tartibli hosilaning mavjudligi. Analitik funksianing yuqori tartibli hosilasi.	4
19.	Funksiyalarni Loran qatoriga yoyish. Qutbga nisbatan funksianing chegirmasini topish.	4
20.	Laplas almashtirilishi, uning xossalari. Originallar sinfi, tasvirlar sinfi. Operasion hisobning asosiy teoremlari.	2
21.	Originalni tasvir bo'yicha tiklash usullari. Differensial tenglamalarni va tenglamalar sistemasini operasion hisob yordamida yechish.	4
22.	Operasion hisob yordamida differensial tenglamalar va tenglamalar sistemasini yechish. Tebranishlar differensial tenglamalarni yechish.	4
23.	Tor tebranishlari tenglamasini Dalamber usuli va o'zgaruvchilarini ajratish (Fure) usuli bilan yechish. Torning majburiy tebranishi.	4
24.	Issiqlik tarqalish tenglamalarini metall sterjenda, chegaralanmagan sterjenda, fazoda tekshirish. Laplasning ikkinchi tenglamasiga keltiriladigan masalalar. Dirixle masalasini yechish.	4
25.	Amaliyotda ko'p uchraydigan muhim diskret va uzluksiz taqsimotlar, normal taqsimotni tadbiqlari.	2
26.	Etimollar nazariyasining limit teoremlari. Katta sonlar qonuni. Chebishev tengsizligi. Bir xil taqsimlangan o'zaro bog'liqsiz tasodify miqdorlar yig'indisi uchun markaziy limit teoremasi.	2
27.	Tasodify miqdorlar sistemasi, ularning taqsimot qonunlari, shartli taqsimot qonunlari. Kovariasiya va korrelyatsiya. Ikki o'lchovli normal taqsimot qonuni va uning o'ziga hos xususiyati.	4
28.	Etimollar nazariyasining texnikaviy masalalarda qo'llanilishi. Taqsimotning noma'lum parametrlari uchun statistik baholarni qurishda masalaning qo'yilishi. Statistik baholarga talablar: siljimaslik, asoslilik, effektivlik.	4
29.	Dispersiya bahosining hossalari, tanlanmaning to'g'irlangan dispersiyasi. Statistik baholar qurish uslublari. Ishonchlilik intervallari. Statistik gipotezalar va ularning sinflari. Gipotezalarni tekshirish algoritmi. Birinchi va ikkinchi turdag'i xatoliklar.	4
30.	Eng quvvatli me'zonlar. Neyman-Pirson mezoni, Kolmagorov mezoni, Pirsonning Xi kvadrat mezoni.	2
31.	Korrelyatsion-regression tahlil elementlari. Korrelyatsiya tushunchasining kelib chiqish tarixi va xossalari.	2
32.	Regressianing har xil ko'rinishdagi tenglamalarini topishda eng kichik kvadratlar usulining mohiyati va har xil modifikatsiyalari.	4
III-SEMESTR		60
Jami:		180

Dasturning informatsion- uslubiy ta'minoti.

Mazkur fanni o'qitish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezident Qarorlari va Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, chet el va Respublikamizda nashr etilgan oliy matematika fani bo'yicha adabiyotlar, elektron adabiyotlar, ilmiy jurnallardagi maqolalar, ma'ruza matnlari, kafedra professor o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan oliy matematika fani bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, elektron o'quv-uslubiy majmualar hamda Internet materiallaridan foydalaniladi.

Ta'lif natijalari (kasbiy kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Fan dasturi bo'yicha chuqur amaliy va nazariy bilimlarga ega bo'lishi; o'zlashtirilgan matematik tushunchalarni, tasdiqlarni geometrik nuqtai nazardan tasavvur qilaolishni; mutaxassisligi bo'yicha bilimlarni puxta egallashi, mavzularda uchraydigan matematik tushunchalarni aniq tasavvur qila olishi, eng sodda texnikaviy jarayonlarni matematik "til"ga o'gira olishni;
- eng sodda amaliy jarayonlarning modellarini tahlil qilish uchun kerakli matematik usullarni tanlayolishni, tahlil asosida amaliy xulosalar chiqara olishni; talaba mutaxassisligi bilan bog'liq adabiyotlarda uchraydigan matematik apparat tushunchalarini mustaqil tahlil qilaolishi, shuningdek "Matematika 1,2" fanidan olingan bilimlarini mutaxassislik fani bilan bog'layolishni;
- kuzatuv natijalariga statistik ishlov beraolishni, noma'lum ko'rsatgichlar uchun statistik baholarni har xil usullar yordamida qura olishni; statistik gipotezalar haqida amaliy tushunchaga ega bo'lishi, ularni tekshirish bosqichlarni bilishi;
- o'z fikr-mulohaza va xulosalarini asosli tarzda aniq bayon eta olish malakalariga ega bo'lishi va h.k. talab qilinadi.

Ta'lif texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruza;
- interfaol keys-stadilar;
- amaliy mashg'ulotlar (mantiqiy fikrlash , tezkor savol javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlar o'tkazish;

TMI (Test)

Kreditlarni olish uchun talabalar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushoxada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakillarida berilgan vazifa va topshiriqlarni basharish, yakuniy nazorat boyicha berilgan test savollariga javob berish.

Nazorat darslari

Nazorat darslari talabalarning fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

T.r.	Nazorat turi
1.	1-ON (talabalarning 1 va 2 modullar bo'yicha amalga oshirgan ishlari portfolio shaklida yig'iladi va baholanadi)
2.	2-ON (talabalarning 3 va 4 modullar bo'yicha amalga oshirgan ishlari portfolio

	shaklida yig‘iladi va baholanadi)
3.	3-ON (talabalarning 5 va 6 modullar bo‘yicha amalga oshirgan ishlari portfolio shaklida yig‘iladi va baholanadi)
4	Yakuniy nazorat, chiqish nazorati (taqdimot shaklida o‘tkaziladi)
Jami	


Grafik organayzerlar

Grafik organayzerlar ma’ruza, amaliy va mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarida talabalar o‘quv materiallarini samarali o‘zlashtirishlari uchun joriy etiladi. Quyida ularning ba’zilari keltirilgan.

1) BBB jadvali. Barcha ma’ruza darslarida qo‘llaniladi. BBB usuli (“bilaman”, “bilishni xohlayman”, “bilib oldim”) orqali talaba o‘zini kuzatishi, o‘qituvchi esa darsga baho berishi mumkin. Talaba dars boshida mavzu bo‘yicha nimani bilishini (B1) va yana nimalarni bilishni xohlashini (B2) daftariga yozib qo‘yadi. Dars so‘ngida nimalarni bilib olganligini (B3) qayd qilib qo‘yadi.

2) Insert usuli. Bu usul matnni o‘zlashtirishda qo‘llaniladi. Talaba sahifa hoshiyasiga o‘z belgilarini qo‘yib ularga munosabat bildiradi. Masalan: “v” – zarur; “_” - xato; “+” - yangi; “!” – e’tibor qiling; “x” - ortiqcha; “*” - ko‘chirish kerak; “?” – tushunarsiz va h.k.

3) Klaster sxemasi




Bu usul fikrni erkin bayon qilish uchun qo‘llaniladi. Masalan, talaba o‘tilgan mavzu bo‘yicha klaster tuzishi mumkin.

O‘rtaga kalit so‘z, tarmoqlarga unga bog‘liq boshqa atamalar yoziladi. Ular ham o‘z navbatida tarmoqlarga ajralishi mumkin.

4) Venn diagrammasi

O‘rganilayotgan obektlarni taqqoslash, o‘xshash va farqli jihatlarini topish, tahlil qilish uchun qo‘llaniladi. Diagrammadagi doirachalar alohida obektni, kesishmalar esa ularning o‘xshash va bog‘liq jihatlarini bildiradi.


Talabadan obektlarning alohida (1-3), o‘zaro bog‘liq (4-6) va umumiy (7) jihatlarini yozma ifodalab berish talab etiladi.



5) SWOT–tahlil. Bu organayzer talabalarda tizimli fikrash, taqqoslash, baholash, tahlil qilish, fikrni davom ettirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. SWOT

atamasi inglizcha so‘zlarning qisqartmasi hisoblanadi: Strengths – obektning kuchli jihatlari; Weakness – kuchsiz jihatlari; Opportunityes – tashqi imkoniyatlari; Threats – tashqi xavf-xatarlari. Talaba yangi qatordan S, W, O, T harflarini yozib yoniga obektning mos sifatlarini yozib chiqadi.

6) “Baliq skeleti” sxemasi. Bu organayzer tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Balik skeletonining bosh qismiga – mavzu, yuqori qismiga – muammolar, pastki qismiga – tasdiqlovchi dalillar yoziladi.



7) Aqliy hujum usuli. Bu usul dars mavzusiga oid savolga javob topish maqsadida g‘oyalarni jamlash va saralash uchun qo‘llaniladi. Har bir talaba o‘zining shaxsiy g‘oyalarni ilgari suradi. Bosqichlari – muammoli vaziyat paydo qilish; yechimni topish uchun g‘oya, fikr berish; yechimlar taqdimotini eshitish; yechimlarni solishtirish va tanlash; xulosa qilish.

8) Esse. Bu mavzu bo‘yicha cheklangan hajmda yoziladigan insho hisoblanadi. Esseda talaba o‘quv materiali bo‘yicha o‘zining shaxsiy fikrini erkin ifoda etadi.

Interfaol o‘qitish usullari (Activity)

Amaliy mashg‘ulotlarda interfaol o‘qitish usullari qo‘llaniladi. Bu usullar talabalarda jamoada ishlash, kasbga oid mustaqil va tanqidiy fikrlash, muloqot madaniyati va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Quyida fan xususiyatlariga xos ba’zi usullar bayon etilgan.

1) «Tushunchalar tahlili» usuli. Talabalar tushunchalarni dastlab yakka tarzda va keyin jamoada muhokama qilishadi. O‘qituvchi jamoaning fikrini yo‘naltirib turadi va oxirida ekranga atamalarning izohini chiqaradi. Talabalar o‘z fikrlarini taqqoslashadi, baholashadi va bilimlarini mustahkamlashadi.

2) «Zinama-zina» usuli. Talabalar mavzu bo‘yicha yakka tarzda fikrini grafik ifoda etishadi, keyin guruhdha muhokama etishadi. Guruhrar taqdimoti o‘tkaziladi va grafik materiallar doskaga mantiqiy pog‘onalar tarzida ilib boriladi.

3) “Charxpalak” usuli. Kichik guruhrar o‘z tarqatma materiallaridagi vazifani bajarib, charxpalak aylanishi bo‘ylab bir-biriga uzatishadi, har bir guruhr boshqalarning ishiga tuzatish kiritadi va oxirida o‘zlariga qaytib keladi. Guruhrar o‘z ishini tuzatishlar bilan takomillashtirgan holda taqdimot qilishadi.

4) «Bumerang» usuli. Talaba bajargan ishini avval o‘z kichik guruhidha, keyin boshqa kichik guruhdha muhokama qiladi, so‘ng yana o‘z guruhiga qaytib kelib umumlashtiradi. Oxirida guruhrar taqdimoti o‘tkaziladi.

5) «Rezyume» usuli. Kichik guruhrarda muammolar o‘rganilib, tahlil qilinadi va xulosa yozma ifoda etiladi. Taqdimotda xulosa ko‘rsatilmaydi, boshqa talabalarning taqdimotga nisbatan fikrlari hisobga olinib yangi xulosa shakllantiriladi va avvalgi yozma xulosa bilan taqqoslanadi.

6) «Muammo» usuli. Dastlab muammoli videolavha ko‘rsatiladi. Kichik guruhlar namoyish vaqtida muammolarni qayd qilib borishadi. Keyin ularning yechimlarni o‘zaro almashishadi va tuzatish kiritishadi. Oxirida muammo bo‘yicha jamoaning xulosasi shakllantiriladi.

7) «Labirint» usuli. O‘qituvchi murakkab vaziyatni bayon qiladi va jamoa bo‘lib undan chiqish yo‘li topiladi. Keyin kichik guruhlarda boshqa muammoli vaziyatlar o‘rganiladi va taqdimot o‘tkaziladi.

8) FSMU usuli. Talabadan o‘z fikrini quyidagi tartibda ifodalash talab qilinadi: F - fikrini bayon qilish; S – fikriga sabab ko‘rsatish; M – sababni asoslovchi misol keltirish; U - fikrini umumlashtirish.

9) «Muloqot» usuli. Kichik guruhlarda alohida mavzular o‘rganiladi va turli materiallar (video, foto, sxema, ilmiy dalillar) tayyorlanadi. Keyin kichik guruhlar o‘rtasida muloqot bo‘lib o‘tadi. O‘qituvchi kichik guruhlarning fikrlarini maqsadli yo‘naltirib boradi va oxirida o‘z munosabatini bildiradi.

Mustaqil ta’lim shakllari

Talabalarning mustaqil ta’limi har bir modul bo‘yicha o‘qituvchi rahbarligida (O‘RTMI) va mustaqil tarzda (TMI) quyidagi shakllar orqali amalga oshiriladi.

O‘qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi (O‘RTMI)

Ushbu fanda meyorlashtirilmaydigan O‘RTMI shakllari rejalaشتirilgan bo‘lib, ular har bir amaliy mashg‘ulot bo‘yicha yakuniy hisobot shaklida qabul qilinadi. O‘RTMI amaliy mashg‘ulotda yoki undan keyin amalga oshirilishi mumkin. Har bir amaliy mashg‘ulotdan so‘ng masofaviy ta’lim platformasida O‘RTMI uchun o‘qituvchining maslahat darslari tashkil etiladi.

Ushbu fanda masofaviy ta’lim platformasida quyidagi O‘RTMI shakllarini qo‘llash nazarda tutilgan:

- 1) Q/A (savollarga cheklangan hajmda javob yozish).
- 2) Chart (jadval, diagramma va sxemalarni cheklangan hajmda tahlil qilish).
- 3) Link (Internet-havolaga annotatsiya yozish).
- 4) Reviyew (berilgan manbaga sharh yozish).
- 5) SWOT (muammoni SWOT-tahlil qilish).
- 6) Google Apps (Google ilovalarda guruh bo‘lib hujjat, jadval, prezentatsiya va testlar tayyorlash).
- 7) Interviyew (boshqalarning muammoga nisbatan fikrini o‘rganish).

O‘qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishlari hajmi

T.r.	Shakli	O‘RTMI ga oid amaliy mashg‘ulot mavzulari	soat
1.	Q/A	“Aniqmas integralning xossalari va integrallash usullari. Asosiy elementar funksiyalar integrallari.” mavzusi bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan berilgan variantlardagi savollarga 50-70 so‘z hajmida javob yoziladi. Javobni baholashda javobning to‘liqligi va so‘zlar soni e’tiborga olinadi.	2

2.	Link	Talaba “Chegaralari cheksiz bo‘lgan xosmas integrallar. Uzilishga ega bo‘lgan funksiyaning xosmas integrali. Xosmas integrallarni xisoblash usullari” mavzusi bo‘yicha berilgan variantlardagi havolalarni ohib ularga fikr bildiradi. Javobni baholashda talabaning to‘g‘ri javob berishi va bayon qilishi inobatga olinadi.	2
3.	Link	Talaba “Ko‘p o‘zgaruvchili funksiining aniqlanish va o‘zgarish sohasi, limiti va uzlusizligi. Xususiy hosilalar. To‘la differensial Sirtga o‘tkazilgan urinma va normal tekislik tenglamalari” mavzusi bo‘yicha berilgan variantlardagi havolalarni ohib ularga fikr bildiradi. Javobni baholashda talabaning to‘g‘ri javob berishi va bayon qilishi inobatga olinadi.	2
4.	Q/A	“Yaqinlashuvchi va uzoqlashuvchi qatorlar. Qator yaqinlashishning zaruriy sharti. Musbat hadli qatorlar yaqinlashishining yetarli shartlari. Dalamber, Koshi va Koshining integral alomatlari” mavzusi bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan berilgan variantlardagi savollarga 50-70 so‘z hajmida javob yoziladi. Javobni baholashda javobning to‘liqligi va so‘zlar soni e’tiborga olinadi.	2
5.	Reviyew	“Chiziqli, bir jinsli, o‘zgarmas koyeffitsiyentli differensial tenglamalarni variatsiya usulida yechish.” mavzusi bo‘yicha berilgan manba belgilangan shaklda va hajmda sharhlanadi.	2
6.	Reviyew	“Differensial tenglamalarning tadbirlari. Taqrifiy yechish usullari: Eyler, Runge-Kutta va ketma-ket yaqinlashish usullari” mavzusi bo‘yicha berilgan manba belgilangan shaklda va hajmda sharhlanadi.	2
7.	Link	Talaba “Tasodifiy hodisa. Hodisalar algebrasi. Ehtimollikning klassik, statistik va geometrik ta‘riflari” mavzusi bo‘yicha berilgan variantlardagi havolalarni ohib ularga fikr bildiradi. Javobni baholashda talabaning to‘g‘ri javob berishi va bayon qilishi inobatga olinadi.	2
8.	SWOT	Talaba “Tasodifiy miqdorlarning taqsimot funksiyasi va uning xossalari” mavzusi bo‘yicha SWOT-tahlilni amalga oshiradi.	2
9.	Google Apps	Talabalar “Tasodifiy miqdorlarning sonli xarakteristikalari: matematik kutilma, dispersiya” mavzusi bo‘yicha hamkorlikda Google-prezentatsiya tayyorlashadi.	2
10.	Reviyew	“Matematik statistikaning asosiy masalalari. Tanlama usuli” mavzusi bo‘yicha berilgan manba belgilangan shaklda va hajmda sharhlanadi.	2
11.	Reviyew	Korrelyatsiya tushunchasining kelib chiqish tarixi va uning xossalari. Regressiyaning tadbirlari” mavzusi bo‘yicha berilgan manba belgilangan shaklda va hajmda sharhlanadi.	2

Talabaning mustaqil ishlari (TMI)

Ushbu mustaqil ish shakllariga o‘qituvchi tomonidan hech qanday ko‘rsatma berilmaydi va baholanmaydi, balki talabaning o‘zi qiziqishlaridan kelib chiqib ularni amalga oshiradi. Fanni o‘qitishda quyidagi TMI shakllari qo‘llaniladi.

Talabaning mustaqil ish mashg‘ulotlari hajmi

T.r.	TMI shakllari	soat
1.	Research. Talabalar Internetdan va boshqa manbalardan mustaqil ravishda ma’lumot izlashadi va tarqatma materiallarni o‘rganishadi. Har bir ma’ruza bo‘yicha kamida 2 soat shug‘ullanish maqsadga muvofiq.	22
2.	Forum. Talabalar fan mashg‘ulotlari bo‘yicha topshiriqlarni bajarish mobaynida masofaviy ta’lim platformasida o‘zaro muloqot qilishadi. Bu jarayon uchun vaqt sarfi masofaviy ta’lim platformasida qayd qilib boriladi.	8
3.	FAQ (ko‘p beriladigan savollar forumi). Talaba o‘z muammosi bo‘yicha maslahat olish uchun masofaviy ta’lim platformasida maslahat tizimiga (glossariyga) yoki o‘qituvchiga murojaat qiladi. Bu jarayon uchun vaqt sarfi masofaviy ta’lim platformasida qayd qilib boriladi.	10
4.	Test. Talaba har bir modul yakunida o‘z bilimlarini mustahkamlash uchun masofaviy ta’lim platformasidagi o‘rgatuvchi testlarni ishlaydi. Bu jarayon uchun vaqt sarfi masofaviy ta’lim platformasida qayd qilib boriladi.	20
	Jami	60

Talabalar bilimini baholash

Oraliq nazoratlar. Oraliq nazoratlar semestr davomida 2 marta o‘quv mashg‘ulotlari davomida o‘tkaziladi va 1-2 va 3-4 modullar bo‘yicha talabalarning bajargan ishlari portfolio shaklida jamlanib tahlil qilib baholanadi.

Jami 11 ta amaliy (Q/A, Chart, Link, Reviyew, SWOT, Google Apps, Interviyew) mashg‘ulotining (LabReport) har bo‘yicha o‘zlashtirish natijalari 5 ballik tizimda baholanadi va jami 95 ball to‘planadi, talabaning darslardagi faolligi va ishtirokiga umumiy 5 ball qo‘yiladi. Umumiy hisobda oraliq nazorat topshiriqlari 100 ballik tizimda baholanadi.

Talabaning oraliq nazorat bo‘yicha o‘zlashtirgan ballari quyidagi jadval asosida kredit ballariga va harfli tizimga o‘giriladi.

Harfli tizimdagи baho	Ballarning raqamli ekvivalenti	Foiz ko‘rsatkichi	An‘anaviy usuldagи baho
A	4,0	95-100	
A-	3,67	90-94	A’lo
V+	3,33	85-89	
V	3,0	80-84	Yaxshi

V-	2,67	75-79	
S+	2,33	70-74	
S	2,0	65-69	
S-	1,67	60-64	
D+	1.33	55-59	
D	1,0	50-54	
F	0	0-49	

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalama maxsus ta’lim vazirining 2018 yil 9-avgustdagi 19-2018-soni buyrug‘iga ilova qilingan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish baholash tizimi to‘g‘risidagi nizom”ga muvofiq oraliq nazoratda fan bo‘yicha A-S darajasiga erishgan talabalar yakuniy nazoratga qo‘yiladi.

Yakuniy nazorat (chiqish nazorati).

Yakuniy nazorat taqdimot (yoki hamkorlikdagi taqdimot) shaklida o‘tkaziladi. Talabaning yakuniy nazoratdagi o‘zlashtirishi ham xuddi oraliq nazoratdagi kabi 100 ballik tizimda baholanadi va yuqoridagi jadval asosida uning baholash ko‘rsatkichi aniqlanadi. Yakuniy nazorat bahosi fan bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichini belgilaydi.

3. O‘quv-uslubiy va axborot ta’minoti Adabiyotlar

3.1. Asosiy adabiyotlar

1. Bauman G. Mathematics for engineers I. Oldenborg Wissenschaftsverlag GmbH. 2010.
2. Bauman G. Mathematics for engineers II. Oldenborg Wissenschaftsverlag GmbH. 2010.
3. Canuto C., Tabacco A. Mathematical Analysis I. Springer-Verlag Italia, Milan 2008.
4. Canuto C., Tabacco A. Mathematical Analysis II. Springer-Verlag Italia, Milan 2010.
5. Berdiqulov M.A., Eshmamatova D.B. Matematika 1, Toshkent, 2018y.
6. Berdiqulov M.A., Eshmamatova D.B. Matematika 2, Toshkent, 2019y
7. G’aniyev I.G’. va boshqalar. Oliy matematika. Toshkent, 2013.
8. G’aniyev I.G’. va boshqalar. “Oliy matematikadan masalalar to’plami” O’quv qo’llanma, 2020 y.
9. Narimov Sh., Eshmamatova D.B. “Oliy matematika (birinchi qism)” O’quv qo’llanma, 2020 yil.
10. Пискунов Н.С. Дифференциальное и интегральное исчислений. 1-2 част. Москва, 1978 г.
11. G’aniyev I.G’, Mansurov X.T., G’anixo’jayev R.N. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika. –Toashkent: TTYMI. 2007.
11. Azimov J.B., Sharipova L.D., Nuriddinov F.R. Oliy matematika masalalar to’plami: Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika. O’quv qo’llanma, 2020 y.

3.2. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017 y.
2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017 y.
3. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida” gi PF-4947-sonli Farmoni. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017 y., 6- son, 70- modda.
5. Берман Г.Н. Сборник задач по курсу математического анализа. Москва. 1985 г.
6. Danko P.Ye., va boshqalar. Oliy matematika misol va masalalarda Toshkent: 2007 y.
7. Минорский. В.П. Сборник задач по высшей математике. –Т.: 1978 г.
8. Демидович Б.П. Сборник задач и упражнений по математическому анализу. М. 2005 г
9. Eshmamatova D.B. “Oliy matematika kursida “Oliy algebra” bo'limi elementlari” Toshkent, 2005 y.
10. Eshmamatova D.B., Ikramova M.E. “Birinchi va ikkinchi tartibli egri chiziqlar” Toshkent, 2006 y.
11. Egamberdiyev B., Isanov R.SH. Oliy matematikadan hisob-grafik ishlarning misol va masalalarini yechish. I-qism. Toshkent, 2009 y.
12. Sharipova L.D. Oliy matematikadan hisob-grafik ishlari boyicha misol va masalalar yechish. II-qism. Toshkent, 2009 y.
13. Egamberdiyev B. Qatorlar. Toshkent, 2005 y.
14. Karimov A.M., Jukova L.G. Oliy matematikadan hisob-grafik ishlari boyicha topshiriqlar to'plami. Toshkent, 2009 y.
15. G'aniyev I.G'. va boshq. Oliy matematikadan masalalar to'plami. 1, 2- qismlar. Toshkent, 2009 y.

3.3. Axborot manbalari

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi.
4. www.ima.uz – O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi.
5. www.academy.uz – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.